

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
davlat oliy ta'lim tashkiloti

60910600 – Oliy hamshiralik ishi
bakalavriat ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60910600 – Oliy hamshiralik ishi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260034
Xulosa raqami	767
Xulosa sanasi	02.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI" davlat muassasasi
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze, Saroy ko'chasi, 3-uy; litsenziya № 75 / 14.04.1992
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Oliy hamshiralik ishi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60910600
Akkreditatsiya usuli	joyiga chiqib
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	URAZALIYEVA ILMIRA RAVKATOVNA, Toshkent davlat tibbiyot universiteti

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 75 / 14.04.1992
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60910600 - Oliy hamshiralik ishi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60910600 - Advanced Nursing
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60910600 - Высшее сестринское дело
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	-
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	-
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Saroy ko'chasi, 9-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

I BOB. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi.

Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma (kafedra)ni tashkil etish tizimli va uslubiy jihatdan puxta yo'lga qo'yilgan: u o'quv-uslubiy faoliyatni tashkil etish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, professor-o'qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, talabalar bilimini monitoring qilish va ta'lim sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan. Moliyalashtirish manbalari (byudjet hamda rivojlanish dasturlari) va nazorat mexanizmi (moliyaviy-iqtisodiy bo'lim) aniq chegaralangan bo'lib, tasdiqlangan smetaga bog'lanishi shakllanish bosqichida yetarli moliyalashtirilmaslik xavfini kamaytiradi. Boshqaruv modeli barqaror bo'lib, ma'muriy funksiyalar akademik maqsadlarga bo'ysundirilgan, ta'lim jarayoni sifati esa muntazam hisobot va qayta aloqa hisobiga qo'llab-quvvatlanadi.

Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli reja universitetning missiyasi va strategik rejasi bilan uzviy bog'langan hamda "Missiya → Maqsadlar → Indiktorlar → Nazorat" zanjirini izchil aks ettiradi. Rejaning kompleksligi, ishlab chiqishga turli bo'limlar va o'qituvchilarning jalb etilishi (inklyuzivlik) hamda muntazam monitoring va o'zgartirishlar kiritish imkoniyati (moslashuvchanlik) uni mehnat bozori talablariga moslashtiradi. Ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari qamrab olingan; mas'ul ijrochilar hamda ijro muddatlari (qisqa, o'rta va uzoq muddatli) belgilangan. Belgilangan vazifalarga ta'sir qiluvchi xavf tahlili va oldindan ishlab chiqilgan muqobil choralar rejani jonli boshqaruv vositasiga aylantiradi va "rejalashtirish - nazorat - tahlil - korrektirovka" tsiklini yopib, tizimni barqaror qiladi.

Sifatni ichki ta'minlash hujjatlari missiyadan konkret ta'lim dasturiga qadar izchil qurilgan; ko'p bosqichli muhokama tizimi (kafedra → kengash → tasdiqlash)

samarasiz qarorlar uchun filtr yaratadi va sifat uchun jamoaviy mas'uliyatni ta'minlaydi. Hujjatlar universitet saytida e'lon qilinib, seminarlarda muhokama qilinishi jamoatchilik uchun ochiqlikni ta'minlaydi va tashqi akkreditatsiyadan o'tishni osonlashtiradi. Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari, ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tartibi mavjud bo'lib, yig'ilgan ma'lumotlar ta'lim dasturini rejalashtirish va ishlab chiqishda qo'llanilgan.

II BOB. Ta'lim dasturlari yo'nalishi.

Ta'lim dasturi universitetning ichki tartib-qoidalari va protseduralari asosida, kafedra hamda o'quv-uslubiy kengash tomonidan ishlab chiqilib tasdiqlangan. Dasturning maqsadlari, kutilgan o'quv natijalari va kompetensiyalari rasmiy hujjatlarda (malaka talablari, modul dasturlari) aniq ifodalangan va o'zaro uzviy bog'langan; ular Milliy malaka ramkasi, davlat ta'lim standarti hamda kasbiy standartlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Manfaatdor tomonlar (ish beruvchilar, soha mutaxassislari, professor-o'qituvchilar) ishtiroki ta'minlangan.

Dastur mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan "Sifatli ta'lim" maqsadi va oliy ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bilan mos; xalqaro ta'lim standartlari inobatga olingan. Sohaga oid dolzarb ilmiy, nazariy va amaliy bilimlar - jumladan dalilga asoslangan hamshiralik (Evidence-based Nursing) yondashuvi - dasturda o'z aksini topgan bo'lib, bitiruvchi akademik bakalavriat darajasida zarur kompetensiyalarni o'zlashtiradi. Dasturning xalqaro standartlarga mosligi bo'yicha xorijiy ekspert xulosasi va akkreditatsion tavsiyalar asosida takomillashtirish ko'zda tutilgan.

Dasturning davomiyligi (240 kredit, 4 yil) uning maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga mos ravishda belgilangan; "kredit" va "malaka talablari" atamalaridan foydalanish xalqaro andozalarga (Bolonya jarayoni, ECTS) mosligini ko'rsatadi. Dasturning barcha tarkibiy qismlari - fanlar (modullar), nazariy va amaliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot faoliyati, amaliyot va attestatsiya - o'rtasida mantiqiy izchillik va uzviylik ta'minlangan, o'quv yuklamalari fanlar kesimida o'lchovli taqsimlangan.

III BOB. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi.

Ishchi o'quv reja va o'quv dasturlar (sillabuslar) ish beruvchilar, talabalar va soha mutaxassislari jalb qilgan holda, ularning takliflari asosida ishlab chiqilgan; takliflar so'rovnomalar, uchrashuvlar va muhokamalar orqali yig'ilib, kafedra tomonidan umumlashtirilgan. Reja va dasturlar MMR, DTS va malaka talablariga muvofiq bo'lib,

talabalarda qattiq va yumshoq ko'nikmalarni (hard and soft skills) amaliy mashqlar, loyihaviy ish, muammoli topshiriqlar, mustaqil ta'lim va ishlab chiqarish amaliyoti orqali rivojlantirishga qaratilgan. Fan bo'yicha baholash mezonlari aniq, adolatli va shaffof; reyting tizimi, test, yozma hamda amaliy baholash o'quv natijalariga mos.

O'quv jarayoni dasturning maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga muvofiqlashtirilgan; amaliyot bazalari sifatida taqdim etilgan Sirdaryo viloyati davolash-profilaktika muassasalari ko'p tarmoqli bo'lib, o'quv rejaning klinik fanlarining katta qismini qamrab oladi. O'quv jarayoni sifatini baholash, tahlil qilish va takomillashtirish tartibi ta'lim jarayonini tashkil etish to'g'risidagi nizom, davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlarga asoslangan.

Talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishini ta'minlash uchun tartib va mexanizmlar ishlab chiqilib tasdiqlangan; talabalarining baholash natijalari bo'yicha takliflari, fikr-mulohazalari va shikoyatlarini yig'ish, ko'rib chiqish uchun mas'ul ijrochilar belgilangan hamda onlayn sotsiologik so'rov o'tkaziladi. Universitetda akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid qoidalar mustahkamlangan Kodeks tasdiqlangan.

IV BOB. Talabalar faoliyati yo'nalishi.

Ta'lim dasturiga qabul qilish mezonlari va talablari davlat ta'lim standartlari va normativ hujjatlar asosida aniq belgilangan hamda universitet sayti va ijtimoiy tarmoqlar orqali abituriyentlarga ochiq yetkaziladi; qabul rejasi taqdim etilgan, oldingi yillardagi qabul natijalari saytda joylashtirilgan. Qabul jarayonlari amaldagi qonunchilikka muvofiq bo'lib, natijalar bo'yicha shikoyat berish mexanizmi (yozma, elektron va qabul komissiyasi portali orqali) ko'zda tutilgan.

Qabul parametrlari universitetning auditoriyalari, laboratoriyalari, amaliyot bazalari, ARM sig'imi hamda professor-o'qituvchilarning ish yuklamasi tahliliga mos ravishda shakllantirilgan; moliyaviy imkoniyatlar (byudjet, grantlar, kontrakt tushumlari) inobatga olingan. Qabul strategiyasi universitetning ko'p tarmoqli klassik universitetga transformatsiya missiyasi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tahliliga ko'ra mintaqadagi oliy ma'lumotli hamshira va shifokorlar tanqisligini 2030-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturi doirasida bartaraf etishga qaratilgan.

Talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish, chetlashtirish va qayta tiklash tartibi normativ-huquqiy hujjatlarga mos ishlab chiqilgan; talabalar harakatiga oid qarorlar bo'yicha shikoyat berish imkoniyati mavjud. Talabalarni

qo'llab-quvvatlashning kompleks "Student-Centered" tizimi joriy etilgan bo'lib, u birlashtirilgan advayzerlar va HEMIS raqamli platformasi orqali akademik yordamni, psixologik bo'shashish markazi orqali psixologik qo'llab-quvvatlashni, moslashuvchan chegirmalar, moddiy yordam va yotoqxona orqali ijtimoiy paketni, karyera markazi orqali esa birinchi kursdan boshlab amaliyot va portfolio shakllantirishni o'z ichiga oladi.

V BOB. Inson resurslari yo'nalishi.

Professor-o'qituvchilar tarkibi fanlarning predmet profiliga muvofiq shakllantirilgan (Subject-Specific Matching): fanlarni ilmiy ixtisosligi predmet profiliga mos bo'lgan mutaxassislar olib boradi. Ilmiy daraja va unvonga ega o'qituvchilar bilan ta'minlanish bakalavriat me'yorlariga javob beradi; boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar (jumladan laborantlar) mavjud bo'lib, ular mikroskoplar, simulyatorlar va kompyuter texnikasini muntazam texnik xizmat ko'rsatish hamda amaliy qismni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Yangi ta'lim dasturi uchun kadrlar ehtiyoji tahlil qilingan; kasbiy rivojlanishni baholash tizimi institutsional nazorat (kafedra, kadrlar bo'limi, o'quv bo'limi) va kompleks mezonlar (o'quv soatlari, ilmiy ish, loyihalarda ishtirok) asosida qurilib, oliy ta'limdagi HRM xalqaro standartlariga mos. Fanlar bo'yicha zarur mutaxassisliklar va kompetensiyalar aniqlangan; yangi kadrlarni jalb qilish (tanlov, konkurs, OAV orqali e'lonlar), kadrlar zaxirasini yaratish, ilmiy darajasi yuqori kadrlarni tayyorlash va doktorlikka yo'naltirish, shuningdek xorijiy mutaxassislarni jalb etish (memorandum) mexanizmlari belgilangan.

Kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgan: qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari kafedra, kadrlar bo'limi va o'quv bo'limi rejasi asosida amalga oshiriladi. Ilmiy maqolalar chop etish, innovatsion g'oyalarga hissa qo'shish hamda milliy va xalqaro loyihalarda faol ishtirok etishni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi tasdiqlangan bo'lib, rag'batlantirish mezonlari shaffof va natijaga yo'naltirilgan.

VI BOB. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari hamda kurs ishlarini bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar va xomashyo materiallari mavjud bo'lib, ularni doimiy monitoring qilish va yangilash tizimi hujjatlar bilan tasdiqlangan. Har bir fanning o'quv dasturida belgilangan o'quv va uslubiy adabiyotlar fan ishchi

dasturlarida qayd etilib, kutubxona fondi talabalarining fikr-mulohazalari orqali muntazam yangilanadi; o'qitish materiallari to'plamlari va raqamli ta'lim resurslari elektron kutubxonaga joylashtirilgan.

O'quv va laboratoriya xonalari talabalar sonidan kelib chiqib jihozlangan; auditoriyalar axborot-kommunikatsiya vositalari (proyektor, kompyuter) bilan ta'minlanib, IT infratuzilma shakllantirilgan, xonalarda o'rindiqlar va ish joylari yetarli. Birinchi tibbiy yordam vositalari, evakuatsiya sxemalari va xavfsizlik jurnallari yuritilishi yo'lga qo'yilgan. Axborot-resurs markazi zamonaviy AKT va internet bilan ta'minlangan; ARM o'quv zali mavjud bo'lib, dalilga asoslangan hamshiralik amaliyoti uchun chek-listlar, SOP va simulyatsion trenajyorlarga urg'u berish tavsiya etilgan.

Raqamli ta'lim muhiti HEMIS va LMS elementlari asosida yaratilgan, o'quv jarayonini boshqarish tegishli buyruq bilan tasdiqlangan; axborot xavfsizligi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kirishni nazorat qilish orqali ta'minlanadi. Ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib sport zali, sport maydonchalari hamda maxsus xonalar mavjud. Inklyuziv ta'lim olish uchun bino va jihozlarning moslashtirilishi, maxsus o'quv materiallari va AKTdan foydalanish imkoniyati (6.4-mezon) hozircha qisman ta'minlangan bo'lib, keyingi bosqichda takomillashtirishni talab etadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun bino va jihozlarning moslashtirilishi (panduslar, liftlar, sanitariya xonalari), maxsus o'quv materiallari va axborot-kommunikatsiya vositalari yaratilmagan (6.4-mezon).
- ✓ Ayrim fanlar bo'yicha nazariy bilim, amaliy mashg'ulot va tadqiqot ishlarining uyg'unligini ta'minlovchi kompleks reja (yo'l xaritasi) mas'ul ijrochilar va muddatlar ko'rsatilgan holda ishlab chiqilmagan (2.3.6, 3.1.3).

- ✓ Asosiy profil fanlari bo'yicha o'zbek tilidagi maxsus (dalilga asoslangan hamshiralik) adabiyot bilan ta'minlanish yetarli emas; sillabus va o'quv majmualari uchun yagona uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilmagan.
- ✓ Amaliyot va stajirovka bo'yicha nizom, o'tish rejalari, ko'nikmalarni baholash chek-listlari, standart operatsion protsedura (SOP) hamda mentor-tizimi to'liq shakllantirilmagan (3.2.2).
- ✓ Xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik bo'yicha aniq yo'l xaritasi (memorandum asosida, tadbirlar va muddatlar bilan) ishlab chiqilmagan (5.3.5).
- ✓ Kadrlarning malaka oshirishi va kasbiy rivojlanish natijalarini baholash hamda hisobga olish mexanizmi to'liq hujjatlashtirilmagan (5.4.5).

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Klinik (hamshiralik) fanlarni o'qitishga oliy ma'lumotli - magistr va PhD darajali - hamshira-mutaxassislarni bosqichma-bosqich jalb etish.
- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun infratuzilma (panduslar, liftlar, moslashtirilgan xonalar, Brayl va audio-video AKT hamda maxsus materiallar) yaratish bo'yicha yo'l xaritasini ishlab chiqish.
- ✓ Amaliyot va kvalifikatsion amaliyot bo'yicha nizom, o'tish rejalari, chek-listlar, SOP hamda davolash muassasasidagi mentor-tizimini joriy etish.
- ✓ Asosiy fanlar bo'yicha o'zbek tilidagi dalilga asoslangan hamshiralik adabiyoti va elektron platformalar ro'yxatini shakllantirish hamda simulyatsion trenajyorlar bilan ta'minlash.
- ✓ Milliy va xorijiy (jumladan Yevropa Ittifoqi davlatlari) tibbiy universitetlar bilan hamkorlik hamda akademik mobillik dasturini kengaytirish.
- ✓ Bitiruvchilar bandligi prognozini hamda mintaqa tumanlari kesimida maqsadli qabul parametrlarini viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan birgalikda ishlab chiqish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Ta'lim dasturi 6 bob, 27 mezon va 99 indikator bo'yicha o'rganildi. 60910600 - Oliy hamshiralik ishi dasturi bo'yicha o'quv-uslubiy, kadrlar va moddiy-texnik shart-sharoitlar shakllantirilgan; dastur oliy ta'limni rivojlantirish strategik hujjatlari, universitet rivojlanish rejasi va sog'liqni saqlash sohasidagi kadrlar ehtiyoji asosida, oliy tibbiy ta'limning akademik profiliga muvofiq ishlab chiqilgan. Dastur 240 kredit, 4 yil (7200 akademik soat) hajmga ega bo'lib, bakalavriat normativ talablariga javob beradi. O'quv reja fundamental medik-biologik va klinik fanlar, jamoat salomatligi, infeksiyalar nazorat hamda klinik epidemiologiyani qamrab oladi va hamshiralikning klinik, amaliy, profilaktik, boshqaruv, kommunikativ hamda ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantiradi. Universitetda sifatni ichki ta'minlash mexanizmlari, o'quv, laboratoriya va kompyuter xonalari, ARM, elektron kutubxona, HEMIS/LMS elementlari hamda klinik-amaliyot bazalari mavjud; professor-o'qituvchilar tarkibi va ilmiy salohiyat bakalavriat minimal talablariga javob beradi. O'tkazilgan SWOT-tahlil universitetda uzluksiz takomillashtirishning barqaror tizimi shakllangani, kuchli tomonlar potentsial xavflardan sezilarli ustunligi va aniqlangan kamchiliklar boshqariladigan xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, 60910600 - Oliy hamshiralik ishi ta'lim dasturini universitetning tibbiyot fakulteti doirasida yangi ta'lim dasturi sifatida ochish tavsiya etiladi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	05.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror (akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

